

“TABIIY GEOGRAFIYA” FANINI O‘QITISH METODIKASINI
INNOVATSION DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH.

Jalilova Charos Zaripovna

Ilmiy rahbar

Temirova Mehriniso Ashraf qizi

Bakalavr

Buxoro davlat pedagogika instituti. Buxoro. O‘zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabiiy geografiya fanini oliy ta’lim tizimida zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitishning dolzarbligi, mavjud metodik yondashuvlar va ularning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, raqamli platformalar orqali ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, dunyo tajribasi misolida interaktiv xaritalar, simulyatsiyalar, mobil ilovalar hamda CLIL metodikasi bilan integratsiyalashtirish yondashuvlari haqida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion yondashuvlar, ma’ruza, darslik asosidagi o‘qitish, xarita bilan ishlash, amaliy mashg‘ulotlar, Interaktiv xaritalar, ArcGIS, Google Earth, 3D, GPS, Moodle, Google Classroom, CLIL.

"IMPROVING THE TEACHING METHODOLOGY OF NATURAL
GEOGRAPHY BASED ON INNOVATIVE SOFTWARE TOOLS"

Jalilova Charos Zaripovna

Scientific Advisor

Temirova Mehriniso

Ashraf qiz

Bachelor's Student

Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Republic of Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the relevance of teaching natural geography in higher education systems using modern, innovative technologies, existing methodological approaches, their advantages and disadvantages, as well as the possibilities of improving education quality through digital platforms. The article

also examines the integration of interactive maps, simulations, mobile applications, and CLIL methodology, based on world experience.

Keywords: innovative approaches, lectures, textbook-based teaching, working with maps, practical exercises, interactive maps, ArcGIS, Google Earth, 3D, GPS, Moodle, Google Classroom, CLIL.

"Совершенствование методики преподавания естественной географии на основе инновационных программных средств"

Джалилова Чарос Зариповна

Научный руководитель

Темирова Мехринисо

Бакалавр

Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Республика Узбекистан

Аннотация: В статье анализируется актуальность преподавания естественной географии в системе высшего образования с использованием современных инновационных технологий, существующих методологических подходов, их преимуществ и недостатков, а также возможности повышения качества образования через цифровые платформы. Рассматриваются также подходы интеграции интерактивных карт, симуляций, мобильных приложений и методики CLIL на основе мирового опыта.

Ключевые слова: инновационные подходы, лекции, обучение на основе учебников, работа с картами, практические занятия, интерактивные карты, ArcGIS, Google Earth, 3D, GPS, Moodle, Google Classroom, CLIL.

Zamonaviy ta'lim tizimi hozirda o'quv jarayonlarini interaktiv va raqamli vositalar bilan boyitishni talab qilmoqda. Ayniqsa, tabiiy geografiya kabi vizual va amaliy fanlarga innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali talabaning bilim olish jarayonini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Tabiiy geografiyani an'anaviy usullarda o'qitish bir tomonlama ma'lumot uzatishga asoslangan bo'lsa, innovatsion dasturiy vositalar orqali bu jarayon interaktiv, qamrovli va samarali tus oladi.

Geografiya fanida qo'llaniladigan an'anaviy metodlar (ma'ruza shakli, darslik asosidagi o'qitish, xarita bilan ishlash, amaliy mashg'ulotlar) tarixan

samarali bo‘lib kelgan. Ammo zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida bu metodlarni takomillashtirish zaruratini tug‘dirdi.

Innovatsion yondashuvlar quyidagilardan iborat:

-Interaktiv xaritalar (ArcGIS, Google Earth): hududlarni raqamli tahlil qilish imkonini beradi.

-Simulyatsiya dasturlari: iqlim o‘zgarishi, yer rel’yefi, suv aylanishi kabi jarayonlarni ko‘rsatadi.

-Mobil ilovalar (EarthViewer, WeatherBug): real vaqt ma’lumotlarini talabalarga yetkazib beradi.

-Elektron ta’lim platformalari (Moodle, Google Classroom): mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Quyidagi O‘zbekistonda foydalaniladigan va mashhur elektron ta’lim platformalari va mobil ilovalar:

– Google Classroom: Bu Google tomonidan taqdim etilgan platforma bo‘lib o‘quvchilarni guruhga bo‘lish, vazifalarni yuklash, elektron qo‘llanmalarni almashish va elektron testlar tuzish imkoniyat yaratadi. Bu, o‘qitish va o‘rganishni boshqarish uchun oson va moslashtirilgan platforma hisoblanadi.

– Microsoft Teams: Bu kommunikatsiya, ko‘rsatish va ishbilarmonlik vositasi bo‘lib, o‘quvchilar bilan interaktiv tarzda muloqotlar, vebinarlar o‘tkazish, fayllarni almashish va ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

– Zoom: Video-konferensiyalar o‘tkazish, vebinarlar tashkillashtirish va interaktiv darslar uchun Zoom platformasi juda mashhur bo‘lib bu platforma orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilar bir-biriga online tarzda ulana oladilar.

– Moodle: Bu o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida interaktiv aloqada yordam beruvchi oson hamda samarali tizim. Moodle orqali kurslar yaratish, vazifalarni yuklash, testlar o‘tkazish va elektron ma’lumotlar almashish mumkin.

– Edmodo: Bu platforma o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi aloqalarni tashkil etish, ma’lumot almashish va bir-birlariga vazifa berish uchun mo‘ljallangan platforma.

– Kahoot!: Bu o‘yin shaklidagi interaktiv testlar tuzish platformasi bo‘lib, o‘qituvchilar o‘quvchilarga bilimlarini sinash, yangi materialni o‘rganish va o‘qitishda qiziqarli muloqotlar tashkil qilish uchun ishlatishlari mumkin bo‘ladi.

– Cambridge Assessment English: Bu platforma ingliz tili va sinovlari uchun materiallar va testlar tuzishda ko‘mak beradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarni o‘rganish va sinovlarga tayyorlashda ishlatishlari mumkin.

– Khan Academy: Bu onlayn ta'lim platformasi o‘quvchilarga matematika, fizika, kimyo, tibbiyot va boshqa fanlarda bepul darslarni taqdim etadi.

– Duolingo: Bu ilovada turli tillarni o‘rganish imkoniyati mavjud. O‘quvchilar o‘z vaqtlarida va o‘z tempida tillarni o‘rganishlari mumkindir.

– Coursera, Udemy, va Skillshare: Bu platformalar orqali o‘quvchilar va o‘qituvchilar dunyo bo‘ylab mavjud kurslarga yozilishlari mumkin, yangi bilimlarni o‘rganishlari va o‘zlashtirilgan ta'limlarni olishlari mumkindir.

— Ibrat academy: Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan Ibrat Farzandlari — xorijiy tillarni bepul o‘rgatishga mo‘ljallangan platforma hisoblanadi.

Chet davlatlar, jumladan Buyuk Britaniya (Edinburgh, Oksford universitetlari) va Singapur universitetlari, tabiiy geografiyani o‘qitishda GIS, Lidar tizimlari, laboratoriya ishlari, dala tadqiqotlari va simulyatsiyalardan keng foydalanib keladi.

Bundan tashqari, tabiiy geografiya fanini ingliz tili bilan integratsiyalash (CLIL) orqali o‘rgatish amaliyoti ham dolzarb bo‘lib, talabalarning ikki tomonlama bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tabiiy geografiya fanida CLIL metodikasini qo‘llash o‘quvchilarga nafaqat geografik bilimlarni o‘rganish, balki ingliz yoki boshqa chet tillarini o‘rganishga imkoniyat yaratadi. Bu metodika geografiyani o‘rganish jarayonida tilni rivojlantirishga yordam beradi, chunki o‘quvchilar geografik tushunchalarni o‘zlashtirish bilan birga, tilni amaliy ravishda qo‘llashni o‘rganib boradilar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion yondashuvlar:

Talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;

Mavzuni chuqur tushunishga xizmat qiladi;

Tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;

Amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ushbu vositalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish hali yetarli darajada emas, ammo mavjud dasturlar (Ziyonet, elektron darsliklar) asosida bosqichma-bosqich joriy etish mumkin.

Xulosa va takliflar

1. Tabiiy geografiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish lozim.
2. O'qituvchilar uchun zamonaviy metodik malaka oshirish kurslarini tashkil qilish zarur.
3. Mahalliy elektron resurslar bazasini boyitish va yangi interaktiv kontent ishlab chiqish talab etiladi.
4. Fan va chet tilini birlashtirgan CLIL metodikasini joriy qilish ijobiy natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024-yil 20-fevral
2. K. Marsh, "CLIL: Content and Language Integrated Learning"
3. J. Coyle, "Integrating Content and Language: A Key to CLIL Success"
4. R. C. O'Neill, "Teaching Geography in a Global Context"
5. <https://lex.uz/docs/-2057279?ONDATE=16.10.2019>